

CHOY KONSEPTINING XALQLAR QADRIYATIDA AKS ETISHI

Abuzalova Mehriniso Qodirovna
Filologiya fanlari doktori (DsC). professor
Ziyodullayeva Gulchehra Fatillo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs
magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsept va tushunchaning mohiyati, ularning o'zaro farqlanishi hamda buning zarurati xususida mulohaza qilinar ekan, o'zbek va jahon tilshunosligida kognitiv tilshunoslik bo'yicha ish olib organ, ushbu masalalarda o'zlarining so'nggi xulosalarini berib o'tgan tilshunos olimlarning aniq fikrlarini keltirib o'tdik. Choy konseptining dunyo xalqlari milliy-mentalitetida, xususan, o'zbek xalqi milliy tafakkurida qanday hosila ma'nolarda aks etishini misollar vositasida izohlab berishga harakat qildik

Abstract. In this article, while considering the essence of the concept and the concept, their mutual differentiation and the necessity of this, we have cited the specific opinions of linguists who have worked on cognitive linguistics in Uzbek and world linguistics and have given their latest conclusions on these issues. We have tried to explain with the help of examples how the concept of tea is reflected in the national mentality of the peoples of the world, in particular, in the national thinking of the Uzbek people.

Kalit so'zlar: choy, konsept, tushuncha, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, kognitiv tilshunoslik va boshqalar.

Keywords: tea, concept, concept, national values, traditions, cognitive linguistics, etc.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik markazida turgan muammolardan biri "konsept" va "tushuncha" masalasidir. O'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotchi olimlar konsept mohiyatini yoritishda bir qancha birliklarni tadqiqot markaziga tortganlar va ularning turli jihatlarini yoritish orqali o'z fikr-mulohazalarini bayon etganlar. "Kasallik" va "salomatlik" konsepti, "to'y" konsepti, "muhabbat" konsepti, "halollik" konsepti, "farzand" konsepti, "jinoyat" konsepti, "maqsad" konsepti va boshqalar shular jumlasidandir. Biz ham ushbu maqolamiz orqali "choy" konsepti va uning millatlar, xususan, o'zbek xalqi qadriyatlarida tutgan o'rni haqida qisqacha fikr yuritishga harakat qildik.

"Konsept" so'zi, lotincha "*conceptus*" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi. Ushbu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi S.A.Askoldov o'z maqolalaridan birida qo'llagan. Uning fikricha, "*Konsept – bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlik*"⁶. Yana bir

⁶ Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С.267-280.

tilshunos olim Y.Stepanov tushuncha va konsept xususida fikr bildirar ekan, *tushuncha* – “belgilangan”, konsept esa “paydo qilinadi”, - degan xulosani beradi⁷. D.S.Lixachevning fikricha esa, kontseplar inson ongida nafaqat soʻzlar anglatgan maʼnolar asosida, balki shaxsiy va xalqning madaniy va tarixiy tajribasi asosida vujudga keladi⁸.

Oʻzbek tilshunosligida ham “konsept” va “tushuncha” haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, Oʻ.Q.Yusupov konseptni “...*tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga boʻlgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, yaʼni baholashlardir*”, - deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: “...*konsept bilan tushunchani aysbergga oʻxshatish mumkin. Agar konsept aysberg boʻlsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir*”⁹.

Tilshunos olim M.Abuzalova oʻzining “Kognitiv tilshunoslik” kitobida “tushuncha” – falsafa va mantiq, “konsept” esa lingvokulturologiya va kulturologiyaning termini sifatida qoʻllanishiga alohida toʻxtalib oʻtadilar. Tushuncha asosiy detallarni, konsept koʻzga koʻrinmaydigan xususiyatlarni ham ifodalashini ham taʼkidlaydi¹⁰. Demak, yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, konsept tushunchaga nisbatan kengroq maʼno ifodalaydi.

Fikrimiz isboti sifatida “sadoqat” soʻzini keltirish mumkin. *Sadoqat* tushuncha sifatida ayol va erkakning bir-biriga sodiqligini ifodalaydi. Barchaning xayoliga birinchi boʻlib keladigan fikr mana shu boʻlsa, kerak. Konsept sifatida ushbu soʻz kishining vataniga, oilasiga, ota-onasiga, ishiga, vijdoniga, diniga, iymoniga, kishining oʻzligiga sadoqat, sodiqlik maʼnosida qoʻllanilishi mumkin. Yana misol tariqasida halollik, ingliz tilida “honestly” konseptini olishimiz mumkin. Ushbu konsept insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ilm egallashga

Demak, konsept insonning bevosita ruhiyati, hissiy idroki, qadriyatlari, milliyligi bilan bogʻliqdir.

Konsept tuzilishida oʻzgacha nuqtayi nazar borligini taʼkidlagan, konsept markazida qadriyat turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrlilik omili yotishini esa rus tilshunosi V.A.Maslova oʻz fikrlarida bayon etgan. Olima konsept maʼnosiga koʻp qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan oʻylanadigan, balki ular oʻzlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnotatsiyani oʻz ichiga olishini koʻrsatadi¹¹.

⁷ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – С. 43.

⁸ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка //Известия Академии наук. Серия Литературы и языка //Известия РАН. Сер. Лит. и яз. – М.,1993. – Т. 52, № 1. – С. 144.

⁹ Yusupov Oʻ.Q. Maʼno, tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamaları xususida//Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yoʻnalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – T., 2011. – 49-bet.

¹⁰ Abuzalova M.K. Kognitiv tilshunoslik. – Buxoro, 2024 B. – 35-36.

¹¹ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск. Тетрасистемс, 2001. – Б. 8.

Tilda qadriyat, milliylik darajasiga yetgan talay konseptual birliklar mavjud. Shulardan biri “choy” konseptidir. Choy bilan bog‘liq milliy qadriyatlarni ko‘rib chiqishdan oldin choy o‘zi nima?, u qanday paydo bo‘lgan? degan savollarga javob izlashga harakat qilib ko‘ramiz. Uning kelib chiqish tarixi ba‘zi afsonalarga borib taqaladi. Rivoyatlarning birida choyni birinchi marta afsonaviy Xitoy imperatori va o‘simlikshunos Shennong miloddan avvalgi 2737- yilda kashf etganligi haqida so‘z boradi. Aytishlaricha, imperator ichimlik suvini ichishdan oldin qaynatilgan suvni yaxshi ko‘rgan, shunda suvning toza bo‘lishini qayd etgan, shuning uchun uning xizmatkorlari shunday qilishgan. Bir kuni u uzoq mintaqaga sayohat qilib, armiyasi bilan dam olish uchun to‘xtadi. Xizmatkor unga ichish uchun qaynoq suv quya boshladi va yovvoyi choy butasidan o‘lik barg suvga tushdi. U jigarrang rangga aylandi, lekin u sezilmadi va baribir imperatorga taqdim etildi. Imperator uni ichdi va uni juda tetiklantiruvchi deb topdi va cha (choy) vujudga keldi.

Choy – choydoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, ma’lumotlarga qaraganda uning vatani Janubiy Osiyo hisoblanadi. Choy ko‘plab mamlakatlarda sevib iste’mol qilinadigan ichimlik hisoblanadi. Bu ichimlik o‘zbeklarda – “choy”, xitoyliklarda – “cha”, inglizlarda – “tea”, finlarda – “teeta”, turklarda – “cay” atamasi bilan yuritiladi. Aytib o‘tish o‘rinliki, choy nafaqat Osiyo, balki Yevropa va boshqa qit’alarda ham sevib iste’mol qilinadigan xushta’m va xushbo‘y ichimlik hisoblanadi. O‘tmish sahifalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Rossiyada choy ichimligi faqat kiborlar doiralarida iste’mol qilingan. Bir necha asrlardan so‘nggina choy ancha ommaviylashgan va rus samovarlari paydo bo‘lgan. Xitoyda choy tarixi uzoq va murakkab, chunki xitoyliklar ming yillar davomida choydan zavqlanib iste’mol qilishgan, zodagonlar yaxshi choyni iste’mol qilish ular maqomining belgisi deb hisoblashgan.

O‘zbekistonda choy ichish qay tarzda urf bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ayrim manbalarga ko‘ra, Turkiston shaharlarida hind savdogarlari choy savdosi bilan shug‘ullanganlar. Shaharlar va yirik qishloq guzarlarida faqat choy ichimligi va tamaddi (non, qand-qurs) bilan savdo qiladigan choyxonalar bo‘lgan. XX asr boshlarida hind savdogarlari Samarqandda choy qadoqlash korxonasini tashkil etganlar va asta-sekin choy o‘zbek xalqi madaniyatining ajralmas qismiga aylangan.

Nafaqat o‘zbek xalqi madaniyatida, balki jahon madaniyat bosqichlarida ham choy o‘zining zalvorli o‘rniga va vazifasiga ega. Xususan, Xitoy choy kundalik hayotning 7 ta zaruratida eslatib o‘tilgan. Choy xitoyliklar uchun tasalli beruvchi terapiya sifatida ham ishlatilgan. Tibetda tetiklantiruvchi vosita va Buyuk Britaniyada asablarni tinchlantirib, aql rivojiga xizmat qiladigan malham. Aytib o‘tish o‘rinliki, choy dastlab Xitoyda dori sifatida ham ishlatilgan va hozirgi kunda ham saraton kasalligiga qarshi asosiy vosita sifatida keltiriladi.

Bugungi kunda biz choyni xilma-xil turlarini bilamiz, ularni iste’mol qilamiz. Choy turlari qay shaklda paydo bo‘ldi ekan degan savol vujudga kelishi tabiiy, albatta? Birinchilardan bo‘lib 1753-yilda Linney o‘simlikning bitta turini “Thea sinensis” deb ta’rifladi. Biroq, keyinchalik u ikkinchi turini ham o‘rganib chiqdi. Thea Bohea va Thea

viridis kabi Xitoyda bir necha xil qora va ko'k choy turlari vujudga keladi. Choyning quyidagi turlari mavjud: qora choy, ko'k choy, limonli choy, muzli choy, imbirli choy, yalpizli choy, sutli choy, mevali choy, shirin choy, mateli choy, gulli choy, syoder choyi va hokazo. Bu choy turlarining leksik xususiyatlari, nomlanishi bevosita ularning tarkibi bilan bog'liq.

Choy konsepti shu qadar chuqur milliylik ildizlariga egaki, choy turlarini iste'mol qilish va ularni quyish va, hattoki, choy idishlardan foydalanish bo'yicha xalqlar orasida alohida an'analar mavjud. Qadriyatlar orasida bir qancha o'xshash va farqli jihatlarga duch kelamiz. Masalan, o'zbeklarda sovuq choyni uzatish be'etiborlik, hurmatsizlik sanalsa, Yaponiya aholisi sovutilgan joy ichishni sevadi. Tibetda sutli choy ichish mehmonavozlikning oliy ko'rinishi, Ozarbayjonda qora choy ko'pincha iste'mol qilinadi va ushbu mamlakatda, hatto, sovchilarga shirin choy berilsa, bu qizlarini berishga rozi ekanliklarini, choy alohida, shakar alohida qo'yilsa, qarshi ekanliklarini ifodalab keladi.

Xitoy va O'zbekistonda choy maxsus chinni idishga damlansa, G'arbiy Afrikada metall choynakka, Turkiyada esa maxsus qo'sh choynakka damlanadi. Turkiyada maxsus shisha stakanlarda iste'mol qilinadi. Turklar qarashi bo'yicha ushbu stakan ayol qomati shaklida yaratilgan va bu o'ziga xos nafosat, go'zallik belgisi hisoblanadi.

O'zbek xalqi orasida choy quyish odati alohida san'at darajasiga ko'tarilgan va turli ma'no nozikliklarni ifodalagan. Bundan tashqari, o'zbek xalqi oilalarida mehmonga choyni piyolaga yarim qilib solib berish an'anasi mavjud. Natijada, mehmonning choyi tez tugab qolib, u uy egasiga qayta-qayta choy so'rab murojaat qiladi. Ushbu odatning ma'nosi shundan iboratki, mezbon choyni piyolaga kamroq quyib berishi mehmondo'stlik alomatidir, mehmonning choy so'rashi esa uy egalariga hurmat belgisi hisoblanadi. Qadimgi odatlar bo'yicha, o'zbek oilasi uyiga tashrif buyurgan yoqimsiz mehmonga choyni piyolaga to'ldirib uzatishgan va diplomatik tarzda uning xushlanmaganini bildirgan. Mehmon esa mezbon nimaga shama qilayotganini tushunib, choy ichib darrov ketishga shoshilgan.

Bundan tashqari, quyidagi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan parchada choy uzatishning alohida go'zallik, milliylik, kelinlik ziynati ekanligini ko'rishimiz mumkin: "Sutchoydan keyin qumg'onda choy keldi. Zaynab birinchi piyolaga quyib o'rnidan turdi va qayinonasiga ikki qo'llab uzatdi, ikkinchi piyolani to'ldirib o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, uni Otabek to'xtatdi:

— Mundan keyin choy berishda o'ringizdan turib o'lturmang, — dedi. — O'lturgan yeringizdan bersangiz ham bo'ladir.

Lekin bu gap qayinonag'a yoqmadi, e'tiroz bildirdi:

— Nega undog' deysan, bola. O'rindan turib choy berish odamzodning ziynatidir, kelinlarning bor-yog'i kelinligi ham shunda-ku!"

Ko'rib turganimizdek, "choy" konsepti juda keng qamrovga ega. Jumladan, choyning nafaqat oddiy ichimlik, balki milliy qadriyatlar ifodachisi, turli go'zal an'analarning

bosh obyekt ekanligini quyidagi ifodalarda ham kuzatishimiz mumkin. O'zbek xalqi tafakkurida choy konsepti ushbu shakllarda voqelanadi:

- 1) milliy ovqatlanish maskani nomlanishi uchun asos (choyxona);
- 2) mehmon kelganda ko'rsatiladigan dastlabki iltifot;
- 3) qiz nazokatini, farosatini ko'rsatib beruvchi ko'zgu (kelin bo'lmish qiz birinchi choy quyib uzatadi va choy quyish jarayonining tartiblari);
- 4) chanqovbosdi ichimlik (hatto, saratonda ham issiq va yaxna choylardan iste'mol qilamiz);
- 5) ko'chim vositasida umuman ovqatlanish ma'nosida (Eshikka kirsangiz, bir piyola choyimiz bor);
- 6) kishilar o'rtasidagi diydor, samimiy suhbat uchun vosita;
- 7) bosh og'rig'ini qoldiruvchi ichimlik;
- 8) ming dardga davo – malham va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abuzalova M.K. Kognitiv tilshunoslik. – Buxoro., 2024. – B. 35-36.
2. Аскольдов С.А. Концепт и слово//Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С.267-280.
3. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка //Известия Академии наук. Серия Литературы и языка //Известия РАН. Сер. Лит. и яз. – М.,1993. – Т. 52, № 1. – С. 144.
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск. Тетрасистемс, 2001. – Б. 8.
5. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2001. – С. 43.
6. Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamallari xususida//Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – T., 2011. – 49-bet.
7. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – T.: Navro'z, 2019. – B.108.
8. Bahodirovna, A. M. . . “Semantic Field of ‘Spirituality’: Lexical Analysis and Psychological, Philosophical Features”. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), vol. 14, Feb. 2022, pp. 124-31, <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/468>.
(<http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/468>)
9. ISLOMOV ELDOR YUSUPOVICH, AHMEDOVA MEHRINIGOR BAHODIROVNA. THE ESSENCE OF SPIRITUALITY IN THE UZBEK LANGUAGE. XIII МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ “ЯЗЫК И КУЛЬТУРА”Челябинск, 26 апреля 2018 года. - P.12-15
10. Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301–305.
11. Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484